



## HARBIY NASHRLAR MATNIDAGI XATOLIKLAR TIPOLOGIYASI

**Alijon Itolmasovich Safarov**

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti, Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
E-mail: [alijons1672@gmail.com](mailto:alijons1672@gmail.com)

**Annotatsiya:** Harbiy nashrlardagi xatolar tipologiyasini bilish, matnni tahririy tahlil qilish muallif fikrini aniqlashtirishga, tayyorlangan materialni shaklini mukammallashtirishga, medimatnning kommunikativ ta'sirchanligini oshirishga, axborotni auditoriyaga aniq, qisqa va lo'nda shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada O'zbekistonda chop etilayotgan, harbiy sohaga bevosita ixtisoslashgan ayrim nashrlardagi yangiliklarda uchraydigan xatolar misolida muammo tahlil etiladi va yechim izlanadi.

**Kalit so'zlar:** harbiy; jurnalist; matn; tahrir; xato; tahlil; uslubiy.

**Annotation:** knowledge of the typology of errors in military publications, editorial analysis of the text serves to clarify the author's opinion, perfect the form of his prepared material, increase the communicative effectiveness of the medimatn, convey information to the auditors in a clear, concise and concise form. In this article, the problem is analyzed and a solution is sought on the example of errors in the news of some publications published in Uzbekistan, directly specializing in the military sphere.

**Keywords:** military; journalist; Text; Edit; error; analysis; methodical.

Boshqa ommaviy axborot vositalari singari harbiy nashrlarda ham turli xatolar uchraydi. Shu ma'noda matn tahririda xatoliklar masalasini o'rganish muhim o'rin egallaydi. Jurnalistik matnda xato qanday kelib chiqadi?

Olimlarning ta'kidlashicha, xato – so'z, so'z birikmasi va gaplarni qo'llashda umumiy tavsiya etilgan adabiy me'yorlardan chekinish tufayli yuzaga keladi<sup>1</sup>. Tilshunos olim L.Щербaning ta'kidlashicha, agar hamma bir xil yozsa, biz bir-birimizni tushunmay qolamiz. Savodsiz yozish esa odamlarning vaqtini o'g'irlash hisoblanadi<sup>2</sup>. Media matnda, harbiy jurnalistikadagi yangiliklarda ham boshqa OAVdagi singari quyidagi xatolar ko'zga tashlanadi:

*grammatik xatolar;*

<sup>1</sup> Медиалингвистика ва таҳрир. 3 жилд. Т: Ўзбекистон, 2019. –Б.509

<sup>2</sup> Щерба Л.В. Современный русский литературный язык//Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1957. –С.110.





*leksik xatolar;*

*uslubiy xatolar.*

Grammatik xatolar soʻz tuzilishi, jumlada soʻzlarning bogʻlanishi, gap qurilishi gʻalizligi auditoriyaga axborotni yetkazishda toʻsqinlikka sabab boʻladi. *“Mehnat faxriysi 121 yoshli”* (“Gvardiya” gazetasi) jumlasida soʻzlarning notoʻgʻri joylashuvi bilan bogʻliq grammatik xatoga yoʻl qoʻyilgan. Soʻzlarni toʻgʻri joylashtirilganda matn quyidagi koʻrinishni oladi: *“121 yoshli mehnat faxriysi”*

Leksik xatolar. Bunda soʻz qoʻllashning qoida va qonuniyatlari buziladi. Buning uchun jurnalist soʻzni toʻgʻri qoʻllashi, soʻzning asosiy va qoʻshimcha maʼnolarini bilishi talab etiladi. Shu sababli xatoga yoʻl qoʻymaslik maqsadida izohli, frazeologik, terminologik va boshqa lugʻatlarga murojaat qilishi kerak boʻladi. Masalan quyidagi jumlada lugʻaviy maʼnoga eʼtibor bermaslik oqibatida matnda leksik xato yuzaga kelgan: *“jinoyatchilik huquqbuzarliklarning”* (“Vaziyat” gazetasi).

Uslubiy xatolar. Olimlar bunday xatolikni jurnalistning uslubiy-adabiy meʼyorlardan chekinish holatlarida yuzaga kelishini yozishadi<sup>3</sup>. Yaʼni til qoidasi buzilmaydi, lekin funksional-uslubiy nomuvofiqlik kelib chiqadi. Nega bunday xatoliklarni tahrir jarayonida toʻgʻirlash talab etiladi? Sababi uslubiy xatolar auditoriyaga salbiy taʼsir etishi mumkin. Uslubiy xatolarda jurnalist tushunarli boʻlmagan soʻzlardan foydalanadi yoki tushunarsiz gap tuzadi. Masalan, *“Shundan keyin navbatdagi oʻquv joyida Urganch garnizonida joylashgan hamda koʻrgazmali oʻquvga yetib kelgan harbiy qismning jangovar imkoniyatlari namoyish etildi”* degan gapda uslubiy xato koʻzga tashlanadi<sup>4</sup>. Uslubiy meʼyor qanday va qaerda buzilgan? *“Jangovar imkoniyatlari namoyish etildi”* jumlasida hamda *“joy”, “oʻquv”* soʻzining takrori oqibatida uslubiy xato paydo boʻlgan. Tahrir qilinganda taxminan shunday matn hosil boʻladi: *“Shundan keyin navbatdagi oʻquv joyida Urganch garnizonidagi harbiy qismning jangovar tayyorgarlik boʻyicha mashqlari namoyish etildi”*.

Shuningdek olimlar matndagi xatoliklarni ikkita toifaga boʻlib oʻrganadi:

grammatik;

nutqiy.

<sup>3</sup> Медиалингвистика ва таҳрир. 3 жилд. Т: Ўзбекистон, 2019. –Б.514

<sup>4</sup> «Ватанпарвар» газетаси, 2022 йил 28 октябрь, 43-сон, 5-саҳифа





Grammatik xatolar toifasi matnni grammatik jihatdan to'g'ri qurish, so'z yasash, so'z o'zgartirish, so'z birikmalari va gaplardagi grammatik bog'lanishlar buzilishini to'g'irlashga qaratiladi.

Nutqiy xatolar esa til birliklarining tarkibi yoki tuzilishidagi emas, balki ularni qo'llashda, ya'ni to'g'ri tuzilgan so'zlarni noto'g'ri, noo'rin, nojo'ya qo'llash muammosi bilan xarakterlanadi<sup>5</sup>.

Xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun mediamatn o'zida aniqlik, soddalik va lo'ndalik xususiyatlari bilan birga ta'sirchanlik, to'g'ri vaqtda berilishi, tezkorlik, yangilik, dolzarblik, jamiyat uchun muhim jihatlarini mujassamlashtirishi kerakligini olimlarimiz ta'kidlab o'tishadi<sup>6</sup>.

Mutaxassislar jurnalistik matndagi xatolarni tahrir qilish uchun avvalo uni tahlil qilish kerakligini aytishadi. Ya'ni tahririy tahlil tizimi ketma-ketligini taklif etishadi. Ular quyidagilar:

- 1) tarkibni tahlil qilish;
- 2) tuzilmani tahlil qilish;
- 3) til va uslubni tahlil qilish;
- 4) alohida tarkibiy bo'linmalar uchun matnni yaxlit tanlab tahlil qilish<sup>7</sup>.

Bunday yondashuv muharrirning matn ustida samarali ishlashida, kasbiy mahorat, ko'nikmalar shakllanishida, muallif asarining yutuq va kamchiliklariga xolis baho berilishida muhim o'rin tutadi. Xatolar tipologiyasini bilish, matnni tahririy tahlil qilish muallif fikrini aniqlashtirishga, uning tayyorlagan materiali shaklini mukammallashtirishga, mediamatnning kommunikativ ta'sirchanligini oshirishga, axborotni audtioriyaga aniq, qisqa va lo'nda shaklda yetkazishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Medialingvistika va tahrir. 3 jild. T: O'zbekiston, 2019. –B.549.
2. Shamaqsudova S.X. Mediamatnlarning tili, uslubi va janriy xususiyatlari. Diss. Avtoref. T.: "Impress media" MChJ. 2023. – B.52.
3. Щерба Л.В. Современный русский литературный язык//Избранные работы по русскому языку. – М.: Учпедгиз,1957. –С.110

<sup>5</sup> Медиалингвистика ва тахрир. 3 жилд. Т: Ўзбекистон, 2019. –Б.510

<sup>6</sup> Шамақсудова С.Х. Медиамаатнларнинг тили, услуби ва жанрий хусусиятлари. Дисс. Автореф. Т.: "Импресс медиа" МЧЖ. 2023. – Б.22 (52)

<sup>7</sup> Медиалингвистика ва тахрир. 3 жилд. Т: Ўзбекистон, 2019. –Б.504-505





4. «Vatanparvar» gazetasi, 2022 yil 28 oktabr, 43-son, 5-sahifa.
5. САФАРОВ, А. И. (2020). EXPRESSION OF THE PURPOSE OF THE AUTHORITARIAN REGIME IN MILITARY PUBLICATIONS (on the example of military publications during the Soviet era in Uzbekistan). *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 156-171.
6. САФАРОВ, А. И. (2020). ҲАРБИЙ НАШРЛАРДА МУСТАБИД ТУЗУМ КЎЗЛАГАН МАҚСАД ИФОДАСИ.
7. САФАРОВ, А. И. (2021). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MILITARY JOURNALISM IN THE MEDIA SPACE. *Иностранные языки в Узбекистане*, (1), 161-179.

